

## XITOIY VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI HUQUQIY KELISHUVLAR HAMDA O‘ZARO HAMKORLIK MUNOSABATLARI

*TDIU Moliya va buhgalteriya fakulteti*

*talabasi: Murodov Nodir*

*TDIU Xorijiy tillar kafedrasi*

*o‘qituvchisi: Khikimatov Dilshodjon*

**Annatsiya:** Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda. 2004 yilning 14 iyun kuni Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan munosabatlar alohida o‘rin tutadi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a‘zosi, iqtisodi jadal rivojlanayotgan bu davlat bilan hamkorlik qilish iqtisodiy rivojlanishda, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda, globallashuv jarayoni chuqurlashayotgan va turli siyosiy o‘zgarishlar davri bo‘lgan hozirgi sharoitda xalqaro siyosat maydonidan munosib o‘rin egallashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro muammolarni yechishda tobora faol qatnashayotgan, dunyoda e‘tirof etilgan “Xitoy modeli” tufayli yalpi ichki mahsulot bir necha yildan buyon 7-8 foiz miqdorida barqaror o‘sib kelayotgan bu davlat dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan. Mazkur maqola esa Xitoy va O‘zbekistonning huquqiy kelishuvlari hamda o‘zaro hamkorlik munosabatlariga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Huquqiy kelishuvlar, o‘zaro hamkorlik munosabatlari, siyosiy kelishuvlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan XXR Davlat Kengash rahbari Li Pen 1994 yil 8 – 20 aprel kunlarida rasmiy tashrif bilan O‘zbekiston Respublikasida bo‘ldi. Davlat Kengashi rahbari Li Pen O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bilan muzakara olib bordi. Ikki mamlakat rahbarlari hamjihatlik va muhitida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish ikki tomonni ham qiziqtirgan mintaqaviy va xavfsizlik muammolari

yuzasidan batafsil fikrlar bildirdilar, o'z mamlakatlarining ijtimoiy – siyosiy iqtisodiy ahvoli to'g'risida bir – birlariga axborot berdilar. Tomonlar rahbarlari muzokaralar yakunida ikkala mamlakat o'rtasidagi diplomatiya munosabatlarini yanada kengaytirish, bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamjihatlikni rivojlantirishga kelishib olindi. Ikkala tomon ham Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi vaziyat keskinlikning kamayishi va barqarorlik sari bormoqda, deb hisoblaydi. Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab turish mazkur mintaqadagi va butun dunyodagi mamlakatlarning umumiy manfaatlariga mos keladi. Ikkala tomon ham Osiyodagi vaziyat va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, mazkur mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar. Tomonlar Osiyo mintaqasidagi ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikka ijobiy munosabatda bo'ldilar.

Tomonlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida siyosiy barqarorlikni va iqtisodiy yuksalishni qo'llab – quvvatlash mazkur mintaq xalqlarning tub manfaatlariga mos kelibgina qolmay, Osiyoda va butun dunyoda tinchlikni saqlab turish uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar. Xitoy davlati Prezident Islom Karimov bayon etgan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda ezgu istaklarini ma'qullashini, hukumatlarning o'z mamlakatlarida va mintaq ahvolni barqarorlashtirishga, shuningdek milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan sa'y – harakatlarini qo'llab – quvvatlashini bildirdi.

Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi rahbari Li Pen o'zi va hamkorlarini samimiy kutib olgani va mehmondo'stlik uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqiga chuqur minnadorchilik bildirdi. Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi rahbari Li Pen Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Szyan Szemin nomidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovga minnadorchilik bildirdi. Li Penning O'zbekistonga qilgan tashrifi Xitoy darvozalarining keng ochilishida muhim omil bo'ldi. Imzolangan bitim va shartnomalar orqali ikki davlat munosabatlariga huquqiy asos solindi. Shuningdek, O'zbekiston va Xitoy rahbarlari uzoq muddatga mo'ljallangan, foydali hamda ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga

mos keladigan hamkorlikni yanada mustahkamlash xususida ham kelishib oldilar. Muzokoralar so'ngida hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekiston bilan Xitoy davlatlari o'rtasida kredit, xvlqaro iqtisodiy hamkorlik hamda ikki mamlakat o'rtasida havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi rahbari Li Penning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi samarali bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari keyingi yillarda ham kengayib bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shu yilning 24-26 oktabr kunlari Xitoyga rasmiy tashrif bilan bordi<sup>1</sup>. Tashrif davomida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Bayonnoma o'zaro munosabatlar tarixidagi yangi sahifani ochib berdi<sup>2</sup>. Prezident Islom Karimov rahbarligidagi O'zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyasi kunning ikkinchi yarmida Xitoy Xalq Respublikasining sanoati gurkirab rivojlanayotgan yirik shaharlaridan biri Shanxayga tashrif buyurdi. Shanxay Xitoyning yirik shaharlaridan biri bo'lib, unda Pekindagidan ham ko'proq, ya'ni salkam 13 million aholi istiqomat qiladi.<sup>3</sup>

Shanxay va Toshkent ikki qadimiy va buyuk shaharlar, mamlakatimizning yirik sanoat, madaniyat, fan va madaniyat markazlaridir, dedi Islom Karimov shahar rahbarlari bilan bo'lgan tantanali uchrashuvda.<sup>2</sup> Mamlakatimiz rahbari shaharning dilkusho joylarini borib ko'rdi. Shanxayliklar bilan suhbatda bo'ldi. Prezidenti I. A. Karimovning Xitoyga qilgan rasmiy tashrifi samarali yakun topdi. 1995 yilning 6 mayida Pekinda O'zbekiston elchixonasi o'z faoliyatini boshladi.

1996 yilning 2-3 iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Szyan Szemin rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga kelayotganligi bois, Xitoy Xalq

---

<sup>1</sup> Kecha Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Raisi Li Penning mamlakatimizga rasmiy tashrifi boshlandi. // Xalq so'zi. 1994 yil, 21 aprel.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> Shanxaydagi uchrashuvlar. // Xalq so'zi. 1994. 25 oktabr

Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Guan Xenguan janoblari bilan suhbat o'tkazildi. Suhbat chog'ida Guan Xenguan Xitoy davlati Markaziy Osiyodagi siyosatida O'zbekistonga alohida ahamiyat berayotganligini ta'kidlab, mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarida O'zbekiston bilan hamkorlikni keng rivojlantirish tarafdori ekanligini bildirdi.

1996 yilning 2-3 iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Szyan Szemin rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar bilan tanishdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish tarafdori ekanligini bildirdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1999 yil 8-10 noyabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrifi davomida imzolangan XXR va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ekstraditsiya to'g'risidagi va telekommunikatsiya sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, O'zbekiston Respublikasi Tishqi ishlar vazirligi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti va Xitoy diplomatiya universiteti o'rtasida, "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi va Xitoyning turizm bo'yicha davlat boshqarmasi, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi va Xitoy jamoatchilik xavfsizligi vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida hujjatlar hamda O'zbekiston XXR o'rtasidagi do'stona hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qo'shma bayonot muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davlatimiz rahbarining Xitoyga uchinchi tashrifi edi. Ushbu tashrif davomida davlatlar o'rtasida 9 ta hujjat imzolardi<sup>4</sup>. Bu hujjatlarlar siyosat va iqtisodiyotdan to madaniyat, pochta va telekommunikatsiyagacha bo'lgan juda ko'p sohalarni qamrab olgan edi.

Xitoy tashqi siyosati borasida gap ketganda, uning O'zbekiston hukumati ilgari surgan talay, taklif va tashabbuslarni qullab-quvvatlaganini ta'kidlamoq kerak. Masalan, Prezidentimizning "Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona" deb e'lon qilish va Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha "Afg'onistonning

---

<sup>4</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. –T. : Sharq, 2000. B. 517.

qo'shinlari va do'stlari”dan iborat “6+2” guruhini tuzish tashabbuslarini aytish mumkin. “Yadrodan xoli zona” g'oyasi Xitoy tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda <sup>5</sup>.

Xitoy O'zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Zero, tashqi dunyo bilan aloqalarni keng ko'lamda rivojlantirish yo'lidan borayotgan mamlakatimiz o'z mintaqasida xavfsizlikning asosiy tayanchi vazifasini o'tayotgani, uning yuksak siyosiy nufuzi va iqtisodiy salohiyati xalqaro miqyosda e'torof etilmoqda.

O'zbekiston- Xitoy munosabatlarini rivojlantirish Buyuk ipak yo'li orqali o'rnatilgan va ravnaq topgan tarixiy aloqalarni tiklash va hozirgi zamonaviy hamkorlikni kengaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. 2004-yilning 15 iyun kuni “Do'rmon” qarorgohida XXR Raisi Xu Szintaoni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Islom Karimov va Xu Szintaoning yakkama – yakka suhbatida O'zbekiston – Xitoy munosabatlariga doir masalalar muhokama qilindi. Mamlakatlarimiz siyosiy, savdo – iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda samarali hamkorlik qilib kelayotgani, xavfsizlik masalalari borasidagi aloqalar faollashayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Darhaqiqat, tomonlar e'tirof etganlaridek, ayni paytda O'zbekiston – Xitoy munosabatlari o'z tarixidagi eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan. Buning eng muhim omili hamjihatlikdir. Dunyodagi vaziyat qanday yo'nalishda o'zgarmasin, O'zbekiston va Xitoy yaqin qo'shnichilikni, do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantiraveradi. Zotan, mamlakatlarimizning qator xalqaro muammolarga munosabat va yondashuvlari o'xshash yoxud yaqin.

Ayniqsa, terrorchilik, ayirmachilik, ekstremizm va narkobiznes kabi xavfsizlikka tahdid soluvchi illatlarga qarsahi kurashda murosasizlik tamoyiliga har ikki davlat birdek qat'iy tayanadi. Tomonlarning Shanxay hamkorlik tashkiloti

---

<sup>5</sup>O'sha joyda.

doirasidagi hamkorligida ham xavfsizlikni ta'minlash masalasi ustuvor yo'nalishlaridandir.

O'zbekiston rahbari ko'p yillardan buyon jahon hamjamiyatini bu illatlariga qarshi kurashda birlashishga da'vat etib kelmoqda. Xitoy tomoni esa xalqaro doiraga terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikni anglatuvchi "uch yozuv kuch" atamasini kiritdi. O'zbekiston Xitoyning "xavfsizlik kamari" tamoyili – qo'shni davlatlar bilan aloqalarini har tomonlama rivojlantirish orqali xavfsizlikni ta'minlash va taraqqiyotni jadallashtirishga asoslangan tashqi siyosatini qo'llab – quvvatlaydi.

O'zbekiston va Xitoy delegatsiyalarning kengaytirilgan tartibdagi muzokarasida hamkorlikning amliy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratildi. Ikki mamlakat to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Prezident Islom Karimov zaxiradagi imkoniyatlar ko'pligini takidlar ekan O'zbekiston Xitoy bilan neft-gaz va menirallar konlarini o'zlashtirish, volfram va boshqa qimmatli metallarni qazib olish, kimyo sanoati, elektronika mahsulotlari va kompyuter texnikasi ishlab chiqarishda tayyor ekanligini aytdi.

Muzokaralar yakunida Islom Karimov va Xu Szintao O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari ,do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida narkotik vositalarining, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va su'istemol etilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikga oid bitimlar imzolandi. Ushbu muzokaralarda muhim hujjatlar imzolandi va Xu Szintaoning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi samarali yakun topdi.

2011 yilning 19 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintaoning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Pekin shahriga bordi<sup>6</sup>. Pekin markazidagi Xalq vakillari majlislar

---

<sup>6</sup> Islom Karimov va Xu Szintao uchrashuvi// Xalq so'zi. 2011 yil. 19 aprel.

saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimdan so'ng Islom Karimov va Xu Szintao o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqat chog'ida O'zbekiston va Xitoy munosabatlarning bugungi holati va istiqboli, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan atroflicha fikr yuritildi.

Tashrifning ikkinchi kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov XXR Davlat Kengashi Bosh vaziri Ven Szyabao bilan uchrashdi. Muloqat chog'ida ikki davlat rahbarlarining muzokarasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni yaqin yillarda tubdan kengaytirish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni amaliyotga joriy etish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston rahbari Butunxitoy xalq vakillari kengashi Raisi U Bango bilan uchrashdi. Muloqat chog'ida davlatlararo hamkorlik va parlamentlararo aloqani rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zi joylashgan qarorgohda XXR tashqi ishlar vaziri Yan Szichini qabul qildi. Konstruktiv va o'zaro manfaatdorlik ruhida o'tgan suhbat asnosida O'zbekiston va Xitoyning siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorligiga doir g'oyat muhim masalalar mintaqaviy va xalqaro siyosatga oid dolzarb muammolar yuzasidan fikr almashinildi. Umuman tashrif asnosida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 25 dan ziyod hujjat imzolandi. Erishilgan kelushuvlar doirasida bir qator sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ularning umumiy qiymati 5 milliard AQSH dollaridan oshadi. Shuningdek, transport kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish O'zbekiston va Xitoyni bog'laydigan ishonchli koridorlar barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Sharqiy Xitoy-Navoiy airoporti- Yevropa xavo yo'lini ochish hamda O'zbekiston va Xitoyni eng qisqa yo'llar bilan bog'laydigan temiryo'l magistralini barpo etish masalalari muhokama qilindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizkiy, qadimdan O'zbekiston- Xitoy munosabatlari shakllanib kelgan. Ikki o'rtada elchilik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa Amir

Temur va Temuriylar davrida hamkorlik aloqalari yaxshi rivojlangan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston boshqa davrlar singari Xitoy bilan ham hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarga oid ko'plab hujjatlar imzolandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abutalipov Ch.A. O'zbekistonning xalqaro aloqalari. – T.: Uzdavnashr. 1964.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi. –T.: Universitet, 2007
3. Bekmurotov I. O'zbekiston Xitoy manfaatlar mushtarakligi // Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2004. №4
4. Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 280-283.
5. Shaxzoda, X. The development of story of the XVI XVII century and the specific style of Pu Sunling's work. Academicia an international multidisciplinary research journal. DOI, 10, 2249-7137.
6. Van Shuylin. Xitoy islohotlar yo'lida // Bozor. pul va kredit. -Toshkent, 1999.№3
7. Ziyayev X. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari. (1980-1985yy) –T.: Fan, 1956
8. Isajonov A. Davlat va tashqi iqtisodiy faoliyat // Bozor, pul va kredit. - Toshkent, 1999. №3
9. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi. –T.: O'qituvchi, 1997